

## PROFILAKTIKA INSPEKTORINING «HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI KUNI» DAGI ASOSIY VAZIFALARI

*Hakimov Abdugahhor Shuhrat o‘g‘li  
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi  
2-o ‘quv kursi 207-guruh kursanti*

**Аннотация:** В данной статье рассмотрено современное состояние основных задач инспектора-профилактора в «День профилактики правонарушений», способ проведения, форма и система мероприятий, правовые основы, основные черты, мнения ученых, специалистов и практиков, посвященные совершенствованию этой деятельности, специальная литература. по теме были изучены и проанализированы факторы, препятствующие совершенствованию данной деятельности, статистические данные, показывающие результаты, передовой зарубежный опыт, а также выработаны предложения и рекомендации с целью закрепления достигнутых в этом отношении положительных результатов и дальнейшего совершенствования деятельности.

**Annotation:** In this article, the main tasks of the preventive inspector on the "Day of Prevention of Offenses", the implementation method, form and system of measures, legal bases, main features, opinions of scientists, specialists and practitioners dedicated to improving this activity, special literature on the topic are presented. , the factors hindering the improvement of this activity, statistical data showing the results, advanced foreign experience were studied and analyzed, and proposals and recommendations were developed in order to strengthen the positive results achieved in this regard and further improve the activity.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada profilaktika inspektorining “Huquqbazarliklar profilaktikasi kuni” dagi asosiy vazifalarining bugungi holati, amalga oshirish usuli, shakli va chora-tadbirlar tizimi, huquqiy asoslari, asosiy xususiyatlari, ushbu faoliyatni takomillashtirishga bag‘ishlangan olimlar, mutaxassislar va amaliyot xodimlarining fikrlari, mavzuga doir maxsus adabiyotlar, ushbu faoliyatni takomillashtirishga to‘sinqilik qilayotgan omillar, natijalarni ko‘rsatuvchi statistik ma’lumotlar, ilg‘or xorij tajribasi o‘rganilib tahlil qilingan hamda bu borada erishilgan ijobiy natijalarni mustahkamlash va faoliyatni yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan

Xozirgi kunda respublikada huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, mamlakatda huquq-tartibotni ta’minlashda ijobiy natijalarga hamda kriminogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishildi. Shu bilan birga, huquqbazarliklar profilaktikasini

amalga oshiruvchi davlat organlarining ish shakli va uslublari, eng avvalo axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi sababli hozirgi kun talablariga to‘liq javob bermaydi. Davlat idoralari aksariyat hollarda huquqbuzarliklar profilaktikasini faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi sifatida baholab, oqibatda ushbu faoliyatga lozim darajada e’tibor qaratmayapti. Vakolatli organlarning yetarli darajada tashabbus ko‘rsatmayotganligi, lozim darajadagi idoralararo hamkorlikning mavjud emasligi, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning o‘zaro nomutanosibligi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirishni talab etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 mart kunidagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora- 5 tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2833-sonli qarori1 bilan respublikamizda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtirishning ta’sirchan tizimini yaratish, qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlari joriy etildi. Qarorda huquqbuzarliklarga murosasizlik madaniyatini shakllantirish, huquqiy niglizmga barham berish va fuqarolarning qonunga itoatkorlik xulq-atvorini ommalashtirish, aholi turmushining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini o‘rganish, huquqbuzarlik sodir etishga ko‘maklashuvchi shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish uyma-uy yurishlarni tashkil etish maqsadida haftaning har payshanba kuni «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni» etib belgilandi va amaliyotda har payshanba kuni jamiyatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasiga mas’ul bo‘lgan davlat organlari va muassasalarining birgalikdagi vazifasi ekanligi va o‘scha kuni hammasining asosiy vazifalaridan biri aynan huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish ekanligi belgilab qo‘yildi.

Bugungi kunda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni hamda inson huquq va erkinliklarini ta’minalash, jamiyat, davlat va shaxsning qonuniy manfaatlarini har qanday ko‘rinishdagi tahdidlardan himoya qilish, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni, millatlararo totuvlikni hamda barqaror taraqqiyotning asosiy omillaridan biridir. «O‘zbekistonimizda tinchlik-osoyishtalik va xavfsizlikni, fuqarolar va millatlararo ahillik va hamjihatlikni ko‘z qorachig‘idek saqlash va mustahkamlash bundan buyon ham eng muhim, hal qiluvchi vazifamiz bo‘lib qolishi darkor». Mamlakatimizda sud-huquq sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida huquqbuzarliklar profilaktikasida jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish tizimi yaratildi. O‘zbekistonda shakllangan huquqbuzarliklar profilaktikasi milliy tizimi, ya’ni huquqbuzarliklar profilaktikasi siyosatiga, uning mazmunmohiyatini o‘zida aks ettiruvchi normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek ularning hayotda amalga oshirilishi va qo‘llanilishini ta’minlovchi organ va muassasalar faoliyatiga bevosita o‘zbek xalqining yuksak ma’naviyatini o‘zida aks ettiruvchi insoniy

tuyg‘ular, fazilatlar, buyuk ajdodlar meroslari, oila qadriyatları haqidagi g‘oyalar singdirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagি “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2833-sonli qarori 16ning qabul qilinishi natijasida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yangi bosqichini va tizimini belgilab berdi. ushbu Qarorda haftaning har payshanba kuni «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni» etib belgilandi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni»ni tashkil etish — huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organ yoki muassasalarning xafthaning xar payshanba kuni muayyan xududda jinoyat va ma’muriy huquqbuzarliklar jamiyatdagi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo‘llashga doir faoliyat tushuniladi. Shuningdek, «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni»ni tashkil etish — huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organ yoki muassasalarning xafthaning xar payshanba kuni muayyan xududda huquqtartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi hamdir.

«Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni»ni tashkil etish — bu bevosita faqat huquqbuzarliklar, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar, huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbir bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar yig‘indisi hisoblanadi. Har qanday davlatda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Chunki tartib bo‘lgan, xavfsizlik ta‘minlangan yurtda tinchlik, osoyishtalik, fayzu-baraka va taraqqiyot bo‘ladi, jamiyat, davlat yuksalib boradi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish esa oqilona boshqaruv tizimi bo‘lishini taqozo etadi. Bugunga kelib huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish nihoyatda murakkablashmoqda. Chunki; birinchidan, yer yuzida aholi soni tez sur’atlarda oshib bormoqda. Ikki ming yil muqaddam 300 million nafar bo‘lgan dunyo aholisi 1600 yilda – 600 millionga, 1804 yilda – 1 milliardga, 1900 yilda – 1,5 milliardga, 2011 yilga kelib esa 7 milliardga yetdi. Hozir dunyoda 7,7 milliard nafar inson istiqomat qilmoqda. Ayni vaqtda aholi har yili 84 millionga oshib bormoqda. Bu 12 yilda yana bir milliardga ko‘payadi degani. Shunga ko‘ra, XXI asr o‘rtasiga borib aholi soni 10 milliardga yetishi kutilmoqda. Aholining tez sur’atlarda o‘sishini O‘zbekistonda ham kuzatish mumkin. Mamlakatimiz aholisi 1991 yilda 20,7 mln bo‘lgani holda, 2019 yil 1 iyulda 33,52 mln, 2022 yilga kelib 35 mlngaga yetdi. Ushbu raqam 2035 yilda 43,6 mln bo‘lishi taxmin qilinmoqda. ikkinchidan, transport vositalari, yo‘l harakati ishtirokchilari kun sayin

ko‘payib bormoqda. Ayni vaqtida birgina avtomashinalar soni dunyoda 1,3 milliarddan oshdi va bu ko‘rsatkich keyingi 30 yilda ikki barobar ortishi kutilmoqda<sup>22</sup>. uchinchidan, jamoat joylari ko‘paymoqda, kengaymoqda. Korxona, tashkilot, ta’lim muassasalari, bozorlar, savdo rastalari, istirohat bog‘lari bunyod etilmoqda. Aholi gavjumlashib bormoqda. Ommaviy tadbirlar ko‘paymoqda. Jumladan, respublikamizda o‘tkazilgan ommaviy tadbirlar soni 2018 yilning birinchi 7 oyida 53240 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2019 yilning shu davrida 82073 ta, 2021 yilga kelib esa 99854 taga yetdi.

Ichki ishlar organlari Profilaktika inspektorining “Huquqbazarliklar profilaktikasi kuni” dagi asosiy vazifalarini qabul qilingan davlat dasturlari, idoraviy va idoralararo ishlab chiqilgan kompleks va alohida dasturlar asosida amalga oshirishi mumkin. Ichki ishlar organlari O‘zbekiston Respublikasi hududida barcha fuqarolar bilan qonun hujjatlariga muvofiq «Huquqbazarliklar profilaktikasi kuni»ni tashkil etadi va tadbirlarni amalga oshiradi, shuningdek ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar (immunitetga ega bo‘lgan shaxslar bundan mustasno) bilan umumiy asoslarda huquqbazarliklarning profilaktikasini amalga oshiradi. «Huquqbazarliklar profilaktikasi kuni»ni tashkil etishda ichki ishlar organlarning hamkorligini turli shakllari mayjud bo‘lib, ularni shartli ravishda ikkiga: o‘zaro axborot almashish hamda faoliyatga doir muayyan chora-tadbirlarni hamkorlikda rejalashtirish, amalga oshirish, natijalarini umumlashtirish, muayyan vazifalarni hal qilishda o‘zaro yordam berish va qo‘llab-quvvatlashda namoyon bo‘ladigan amaliy hamkorlikka ajratish mumkin. O‘zaro axborot almashish hamkorlikning eng ko‘p tarqalgan shaklidir. Olimlar axborot olish va unga ishlov berishni ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy texnologiyalaridan biri deya ta’kidlaydilar. OAV, ommaviy nashrlar orqali vaziyatni tahlil etish va baholash shaxsning nizoli vaziyatlarni idrok etishiga hamda zarur hollarda to‘g‘ri xulosa chiqarishiga yordam beradi. Bu borada televideniye muhim o‘rin tutishini alohida ta’kidlash lozim. Chunki televideniyening hozirgi kunda eng taraqqiy etgan axborot vositasi ekanligidan tarbiya jarayonida foydalanish katta ahamiyatga egaligini e’tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Nizoli va janjalli vaziyatlar ko‘p hollarda ma’lum bir sabablar asosida asta-sekin «yetilib» boradi va ma’lum bir sharoit asosida o‘zining yakuniy nuqtasiga yetadi. Oqibatda esa, aytib o‘tilganidek, jinoyat sodir bo‘ladi. Bu o‘ziga xos qonuniyatdir. Biroq aynan shu yetilib borish jarayonida shunday nuqtalar mavjudki, ushbu nuqtada vaziyatni yumshatish zaruriyati yuzaga keladi. Agarda vaziyatni yumshatishning aybdor va jabrlanuvchilarning har ikkisi yoki bir tomonlama amalga oshirishi imkoniyati yuzaga kelmasa, bunda uchinchi shaxsning ishtiroti va chigallikni yechishda uchinchi bir tomon ijobiy ta’sir etishi lozim. Lekin, ta’kidlash joizki, aynan shu uchinchi shaxs sifatida davlat organlari va umuman huquq-tartibot hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning reja asosida, ilmiy asoslangan ta’sir choralarini qo‘llashi profilaktika ishlarining samarasini oshirishda alohida ahamiyatga egadir. «Huquqbazarliklar profilaktikasi kuni»ni tashkil etish va amalga oshirishda

profilaktika inspektorlari, mahalla yig‘inlari faollarining har biri o‘z vakolati doirasidan kelib chiqqan holda ish ko‘rmog‘i lozim. Ya’ni, tushuntirish ishlarini tashkil etish va bunda o‘z xatti-harakatlari bilan ko‘pchilikning izzat-nafsoniyatiga teguvchi fohishabozlik, qo‘shmachilik qilish yoki uyatlari so‘zlar bilan so‘kinuvchi shaxslarga alohida e’tibor qaratilishi zarur. Bu borada OAVdan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish darkor.

Bugungi kunda Profilaktika inspektorining «Huquqbazarliklar profilaktikasi kuni»dagi asosiy vazifalarini amalga oshirishi muayyan xolatda o‘zininig samarasini bermoqda. Biroq ushbu soxada ham kamchiliklar va muammolar borligi va ushbu faoliyat xamda vazifalarni takomillashtirish zarurligini taqazo etmoqda. «Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak» degan prinsip barcha bo‘g‘indagi rahbarlar faoliyatida asosiy qoidaga aylanishi kerak<sup>66</sup>. Ushbu qoida har bir ichki ishlar organlari xodimlarining shioriga aylanishi va ushbu shiorga itoat etib xizmat olib borishi profilaktika inspektorining «Huquqbazarliklar profilaktikasi kuni»dagi asosiy vazifalarini o‘z vaqtida xamda to‘liq bajarishiga olib keladi. Profilaktika inspektorining asosiy vazifalari «Huquqbazarliklar profilaktikasi kuni»ni rejalashtirish, tadbirlar uyuhtirish, faoliyatni nazorat qilish, hisobotlarni yuritish, ulardan foydalanish, ishlarni tashkil qilish va muvofiqlashtirish kabilarni qamrab olishi lozim. huquqbazarliklar profilaktikasiga doir davlat darajasidagi, hududiy, sohaviy yoki sohaviy-hududiy dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirishning asoslari va tartibini ilmiy yoki huquqiy manbalarda kuzatish qiyin. Aynan shuning uchun ham profilaktika inspektori «Huquqbazarliklar profilaktikasi kuni»ni tashkil etishi xamda «Huquqbazarliklar profilaktikasi kuni»dagi vazifalarini amalga oshirishida muayyan muammo va qiyinchiliklar mavjud. Mazkur muammoni huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish, huquqbazarliklarning sabablari hamda sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek bu haqda taqdimnomalar kiritish va ularning ijrosini ta’minalashga doir faoliyatda ham kuzatish mumkin.

Profilaktika inspektorining “Huquqbazarliklar profilaktikasi kuni” dagi asosiy vazifalarini amalga oshirish jarayoni va tadqiqotlarni olib borish asosida olingan xulosalar jinoyatchilikning sabab va sharoitlarini o‘rganish hamda jinoyatchilik orqasida yuzaga keluvchi salbiy oqibatlarni baholashda muhim o‘rin tutishiga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Zotan, huquqbazarliklar profilaktikasi istiqbollari hozirgi kunda yetarlicha baholanmaganligi achinarli holdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagagi ma’ruza // Xalqso‘zi. – 2018. – 8 dek.

2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil 10-dekabr)/ Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi// <http://constitution.uz/uz/pages/humanrights>.
3. Криминальное насилие: общие проблемы и опыт борьбы в Республике Саха (Якутия) [Текст] / отв. ред. А. И. Долгова. – М., 2004.
4. Gender zo‘ravonlik bo‘yicha ichki ishlar organlari tomonidan huquqni muhofaza qilish xizmatlarini taqdim etishning standart operatsion ish tartiblari [Матн]: йўриқнома / адаптация бўйича мутахассис В. О. Самадович. — Тошкент: Baktria press, 2021. — 48
5. [https://www.hotpeachpages.net/lang/RussianTraining/myths\\_and\\_realities\\_of\\_dv.pdf](https://www.hotpeachpages.net/lang/RussianTraining/myths_and_realities_of_dv.pdf), <http://kraism.by/obshhestvo/45469-pravda-i-mify-o-domashnem-nasili.html>
6. Жалилов, Н. 2022. Профилактика инспектори маъмурий иш юритиш фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари. Жамият ва инновациялар . 2, 12/S (Feb. 2022), 348–352. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss12/S-pp348-352>.
7. Жалилов, Н. 2022. Ҳукуқбузарликларнинг якка тартибдаги профилактикаси институтининг назарий асослари. Жамият ва инновациялар . 3, 4/S (May 2022), 397–403. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss4/S-pp397-403>